

TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH

Daniyarov Kuvatbay Daurxanovich

Qoraqalpoq davlat universitetining
mustaqil izlanuvchisi i.f.f.d., PhD., dotsent

Annotatsiya

Maqolada tadbirkorlik subyektlari innovatsion faoliyatini moliyalashtirish muammosi tadqiq etilgan bo'lib, mamlakat iqtisodiyotining innovatsion rivojlanishini ta'minlash sharoitida bu muammo dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Muammoni ochib berish uchun asosan uchta tadqiqot usuli – ilmiy-nazariy, nazariy-amaliy va iqtisodiy-statistik tahlil usullari qo'llanilgan. Tadqiqot natijasida tadbirkorlik subyektlarining innovatsion faoliyatini moliyalashtirishda davlatning roli yuqori ekanligi asoslab berilgan. Muallif tadqiqot muammosini ilmiy-nazariy o'rganish, amaldagi holatini tahlil qilish va ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish orqali uni yoritishda o'z ilmiy va amaliy hissasini qo'sha olgan.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik, tadbirkorlik subyektlari, innovatsion faoliyat, innovatsion loyiha, moliyalashtirish, grant, subsidiya, davlatning qo'llab-quvvatlashi.

Аннотация

В статье изучена проблема финансирования инновационной деятельности субъектов предпринимательства, которая приобретает актуальное значение в условиях обеспечения инновационного развития экономики. Для раскрытия данной проблемы были использованы три основных метода исследования – научно-теоретический, теоретико-практический и экономико-статистический анализ. В результате исследования обоснована высокая роль государства в финансировании инновационной деятельности субъектов предпринимательства. Автор внес свой научный и практический вклад в освещение исследуемой проблемы посредством научно-теоретического изучения, анализа существующего состояния и разработки научно-практических рекомендаций.

Ключевые слова: предпринимательство, субъекты предпринимательства, инновационная деятельность, инновационный проект, финансирование, грант, субсидия, государственная поддержка.

Abstract

In the article, the issue of financing the innovative activities of business entities is examined, and this problem has become increasingly relevant under the conditions of ensuring the innovative development of the national economy. To address this issue, three main research methods were applied: scientific-theoretical, theoretical-practical, and economic-statistical analysis. The results of the study substantiate the significant role of the state in financing the innovative activities of business entities. Through scientific-theoretical investigation, analysis of the current situation, and the development of scientific and practical recommendations, the author has made a meaningful scientific and practical contribution to addressing the research problem.

Keywords: entrepreneurship, business entities, innovative activity, innovative project, financing, grant, subsidy, state support.

KIRISH

Mamlakatimiz iqtisodiyotida tadbirkorlik subyektlarining oʻrni tobora oshib borayotgan boʻlib, 2024-yil yakunlariga koʻra, ularning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 54,3 foiz, sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 32,4 foiz, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmidagi ulushi 51,8 foiz, savdo aylanmasidagi ulushi 84,0 foiz, koʻrsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi 57,0 foiz va mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi 33,3 foizni tashkil etgan [1]. Ushbu maʼlumotlardan koʻrinib turganidek, mamlakat iqtisodiyoti uchun nihoyat darajada muhim oʻringa ega boʻlgan tadbirkorlik subyektlarining rivojlanishi uchun yanada koʻplab qulay shart-sharoitlarni yaratish mamlakat hukumati oldida turgan ustuvor vazifalardan biri boʻlib, bunda ularning innovatsion faoliyatini moliyalashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Raqobat muhitidagi keskin oʻzgarishlar bilan xarakterlanayotgan mamlakat iqtisodiyotini innovatsion rivojlanish sharoiti tadbirkorlik subyektlaridan innovatsion faoliyatni joriy etish va rivojlantirishni talab qilmoqda. Ushbu faoliyatni amalga oshirish moliyalashtirishni talab qilib, mazkur maqolada tadbirkorlik subyektlari innovatsion faoliyatini moliyalashtirish xususida fikr yuritamiz.

ADABIYOTLAR SHARHI

Tadbirkorlik subyektlarining innovatsion faoliyatini moliyalashtirish xorijlik hamda mahalliy olim va tadqiqotchilar tomonidan tadqiq etilayotgan muammolardan biri boʻlib, quyida bu boradagi yondashuv va qarashlarni qisqacha tahlil qilib oʻtamiz. Bundan tashqari, bu borada Rossiya Federatsiyasining tajribasidan ham misol keltiramiz.

Bir guruh xorijlik olimlar — Ispaniyalik Anabela M. Santos, Belgiyalik Mishel Sinsera va Italiyalik Jovanni Cherulli oʻz ilmiy izlanishlarida tadbirkorlik subyektlarining innovatsion faoliyatini moliyalashtirishning sakkizta manbasi xususida toʻxtalib oʻtishgan boʻlib, ular jumlasiga ichki mablagʻlar, bank kreditlari, kredit liniyalari, savdo krediti, xususiy kapital, grantlar yoki subsidiyalar, lizing hamda faktoring kabilar kiradi. Olimlarning fikriga koʻra, ushbu moliyalashtirish manbalarining hammasi ham innovatsion faoliyatni rivojlantirishga birdek taʼsir koʻrsatmaydi. Biroq, ularning barchasidan birgalikda foydalanilsa, bu nafaqat tadbirkorlik subyektlari innovatsion faoliyatining rivojlanishiga, balki ularning har tomonlama oʻsishiga imkon yaratadi. 1-jadvalda ushbu moliyalashtirish manbalari va ularning innovatsion faoliyatni rivojlantirishga koʻrsatadigan taʼsir darajasi ifodalangan.

Rossiya Federatsiyasida tadbirkorlik subyektlari innovatsion faoliyatini moliyalashtirish maqsadida “Parvoz – startapdan IPO gacha” nomli federal loyiha amal qilayotgan boʻlib, ushbu loyihani amalga oshirish doirasida Innovatsiyalarga koʻmaklashish fondi Iqtisodiy rivojlanish vazirligi bilan hamkorlikda muntazam ravishda “Biznes — start” nomli koʻrik-tanlovni oʻtkazib keladi. Ushbu koʻrik-tanlov innovatsion mahsulotni seriyali ishlab chiqarish va tijoratlashtirish uchun zarur boʻlgan ishlab chiqarishni yaratish, kengaytirish va (yoki) modernizatsiya qilishni oʻzida ifoda etgan innovatsion loyihalarni tanlab olishni maqsad qiladi.

1-jadval.
Tadbirkorlik subyektlarining innovatsion faoliyatini moliyalashtirish manbalari [2]

№	Manbalar	Tavsifi	Innovatsion faoliyatga ta'sir darajasi
1.	Ichki mablag'lar	Jamg'arishlar, taqsimlanmagan foyda yoki aktivlarni sotish natijasida yuzaga keladigan pul mablag'lari yoki ularning ekvivalentlari	O'rta
2.	Bank kreditlari	To'lash sharti bilan beriladigan uzoq muddatli qarz va moliyalashtirish qiymati (foiz stavkasi)	Past
3.	Kredit liniyalari	Oldindan belgilangan limit doirasida o'z xohishiga ko'ra to'liq yoki qisman ishlatilishi mumkin bo'lgan qisqa muddatli kreditlar	Past
4.	Savdo krediti	Tovarlar, xizmatlar yoki asbob-uskunalarini yetkazib beruvchilarga to'lovni kechroq, o'zaro kelishilgan vaqtda amalga oshirish	Past
5.	Xususiy kapital	Tadbirkorlik subyekti ulushini sotish natijasida yuzaga keladigan mablag'lar	O'rta
6.	Grantlar yoki subsidiyalari	Qaytarib berilmaydigan mablag'lar, davlat tomonidan taqdim etiladigan past foizli yoki foizsiz ssudalar	Yuqori
7.	Lizing	Asosiy vositaga bevosita egalik qilmasdan undan foydalanganlik uchun muntazam to'lovlarni amalga oshirish	Past
8.	Faktoring	Mijozlarning qarzlarini faktoring kompaniyasiga zudlik bilan olinadigan naqd pul evaziga, lekin ularning qiymatidan pastroq miqdorda sotish	O'rta

Iqtisodiy rivojlanish vazirining o'rinbosari Maksim Kolesnikovning aytishicha, "Parvoz – startapdan IPO gacha" federal loyihasi doirasida startaplar o'z rivojlanishining har bir bosqichida, ya'ni faoliyatining kengayishidan boshlab yirik buyurtmachilarning talablari asosida mahsulotni takomillashtirish va fond bozoriga chiqishgacha bo'lgan davrda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Bunda mahsulotni takomillashtirish va ishlab chiqarish ko'lamini oshirishni qo'llab-quvvatlovchi eng muhim vositalardan biri bo'lib grantlar hisoblanadi. 2024-yildagi "Biznes-start" ko'rik-tanlovi yakunlariga ko'ra 33 ta kichik korxonalar umumiy 372 mln rubl hajmidagi moliyaviy qo'llab-quvvatlash imkoniyatini qo'lga kiritishib, ularning innovatsion loyihalari 3D bosmaxonasi, biometriya va axborot xavfsizligi tizimlari, tibbiy asboblarni yaratish, shuningdek sanoat va qishloq xo'jaligining turli sohalari uchun yangi qurilmalarni ishlab chiqish kabilarni qamrab oladi. Vazir o'rinbosarining qo'shimcha qilishicha, ko'rik-tanlovda kichik texnologik kompaniya maqomiga ega bo'lgan tadbirkorlik subyektlariga ustuvorlik beriladi: ularning innovatsion loyihalarini ko'rib chiqish va baholashda qo'shimcha ball beriladi. Shuning uchun ham, ko'rik-tanlovning har ikkinchi g'olibi — bu kichik texnologik kompaniya maqomiga ega bo'lgan tadbirkorlik subyektlaridir.

Innovatsiyalarga ko‘maklashish fondi bosh direktori Sergey Polyakovning qayd etishicha, ko‘rik-tanlov g‘oliblarining har biriga 12 mln. rublgacha grantning taqdim etilishi ularga mablag‘larni marketing xizmatlari va sanoat dizayni, shuningdek asbob-uskuna, butlovchi qismlar va dasturiy ta‘minot vositalarini xarid qilish, ya‘ni yangi yoki takomillashgan mahsulotni bozorga chiqarish uchun zarur bo‘lgan barcha ishlarni amalga oshirish uchun yo‘naltirish imkonini beradi [3].

Mahalliy tadqiqotchi Sh. A. Atamuradov tadbirkorlik subyektlarining innovatsion faoliyatini moliyalashtirishda venchur kapitalining o‘rni va rolini o‘rgangan bo‘lib, uning aytishicha, xalqaro tajribada venchur kapitali amaliy g‘oyalarning moliyalashtirilishida katta yordam beradi. AQSH, Yaponiya, Singapur, Finlyandiya va Hindiston tajribasini o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, venchur kapitali orqali moliyalashtirish iqtisodiy rivojlanishning innovatsion modeli sifatini tubdan o‘zgartirishi, uni investitsiya bilan ta‘minlashi, pirovard natijada iqtisodiy o‘sishga olib kelishi va investitsiya taqchilligini bartaraf etishi mumkin. Sh. A. Atamuradovning qo‘shimcha qilishicha, bunda tadbirkorlik subyektlarining innovatsion faoliyati xususiy investitsiyalar orqali moliyalashtiriladi. Investitsiyalarni yo‘naltirishdan maqsad tadbirkorlik subyektlarining innovatsion faoliyati muvaffaqiyatli bo‘lgan taqdirda kelajakda foyda olishdan iborat bo‘ladi. Venchur moliyalashtirish o‘ziga xos bo‘lib, yuqori tavakkalchiligi va uzoq muddatliliigi (uch yildan yetti yilgacha) bilan ajralib turadi [4].

Umuman olganda, tadbirkorlik subyektlarining innovatsion faoliyatini moliyalashtirish masalalariga oid adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, bu sohada davlatning roli juda katta bo‘lib, uni asosan grantlar yoki subsidiyalar orqali qo‘llab-quvvatlashi innovatsion faoliyatning rivojlanishi uchun muhim turtki beradi.

METODOLOGIYA

Ushbu maqola xalqaro IMRAD tuzilmasi talablariga rioya etilgan holda tayyorlangan bo‘lib, unda asosan uchta tadqiqot usuli qo‘llanildi: ilmiy – nazariy tahlil usuli, nazariy-amaliy tahlil usuli va iqtisodiy-statistik tahlil usuli. Ilmiy-nazariy tahlil usuli asosan maqolaning “Adabiyotlar sharhi” qismi uchun to‘plangan ma‘lumotlarni tahlil qilishda ishlatilgan bo‘lsa, iqtisodiy-statistik tahlil usuli maqolaning “Tahlil va natijalar” qismi uchun to‘plangan ma‘lumotlarni tahlil qilishda ishlatildi. Nazariy-amaliy tahlil usuli bo‘lsa maqolaning ushbu ikkala qismida ham ishlatildi.

“Adabiyotlar sharhi” uchun ma‘lumotlarni to‘plash jarayonida asosan Google, Google Scholar va Yandex qidiruv tizimlari, shuningdek Elsevier xalqaro ilmiy jurnallar bazasidan foydalanildi. Bunda asosan 2019-yildan hozirga qadar onlayn va chop etilgan adabiyotlarni o‘rganishga asosiy e‘tibor qaratilgan bo‘lib, xorijlik olim va tadqiqotchilarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlarini o‘rganishda ingliz tilidagi adabiyotlar, Rossiya tajribasini nazariy-amaliy tahlil qilishda rus tilidagi adabiyotlar hamda mahalliy olim va tadqiqotchilarning fikr-mulohazalarini o‘rganishda o‘zbek va rus tilidagi adabiyotlardan foydalanildi.

“Tahlil va natijalar” uchun ma‘lumotlarni to‘plash jarayonida asosan birlamchi va ikkilamchi tadqiqot manbalaridan foydalanildi. Birlamchi tadqiqot manbalaridan foydalanishda tadbirkorlik subyektlarining innovatsion faoliyatini moliyalashtirishga

bog‘liq bo‘lgan mahalliy olim, tadqiqotchi va mutaxassislar bilan o‘zaro suhbatlar uyushtirilgan bo‘lsa, ikkilamchi tadqiqot manbalaridan foydalanishda Google va Yandex qidiruv tizimlari, mahalliy yangiliklar internet saytlari hamda tegishli tashkilotlarning hisobotlari va statistik byulletenlariga murojaat qilindi.

Umuman olganda, maqolani tayyorlashda axborot va ma’lumotlardan maksimal darajada foydalanish, mantiqiy ketma-ketlik va izchilikka rioya etish hamda plagiatga olib kelishi mumkin bo‘lgan “copy-paste” usulidan foydalanmaslikka harakat qilingan bo‘lib, bu tadqiqot oldiga qo‘yilgan asosiy maqsad — tadbirkorlik subyektlari innovatsion faoliyatini moliyalashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga yordam berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon mamlakatlarida bo‘lgani kabi mamlakatimizda ham tadbirkorlik subyektlarining innovatsion faoliyatini moliyalashtirish masalalariga e’tibor qaratilayotgan bo‘lib, bundan ko‘zlangan maqsad mamlakatda import o‘rnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish hajmining ko‘payishi, aholi bandligi va daromadlari manbaining oshishi, jahon bozorida raqobatlasha oladigan milliy brendlarning rivojlanishi, shuningdek raqamli, yashil va barqaror iqtisodiyotlarning shakllanishiga erishishdan iboratdir. Darhaqiqat, bu kabilarga erishishda innovatsion faoliyatni rivojlantirgan tadbirkorlik subyektlari “drayver” vazifasini bajarishadi. Maqolaning ushbu qismida mamlakatda tadbirkorlik subyektlari innovatsion faoliyatini moliyalashtirishning amaldagi holatini tahliliy ma’lumotlar asosida ko‘rib chiqamiz.


E’tiboringizni 2-jadvalga qaratmoqchimiz. Ushbu jadvalda so‘nggi uch yil davomida O‘zbekistonda kichik va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan joriy etilgan innovatsiyalarning miqdori ko‘rsatilgan:

2-jadval.

2022-2024 yillarda O‘zbekistonda kichik va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan joriy etilgan innovatsiyalarning miqdori [5]

№	Innovatsiyalarning turlari	2022	2023	2024
1.	Texnologik innovatsiyalar	2778	1541	1815
2.	Marketing innovatsiyalari	129	40	45
3.	Tashkiliy innovatsiyalar	33	54	278
Jami:		2940	1635	2138

2-jadvalda keltirilgan ma’lumotlarni tahlil qilishdan oldin innovatsiyalarning turlari – texnologik innovatsiyalar, marketing innovatsiyalari va tashkiliy innovatsiyalarning mazmuni to‘g‘risida qisqacha ma’lumot beruvchi quyidagi 1-rasmga e’tibor qaratishingizni so‘raymiz:



1-rasm. Innovatsiyalarning turlari [6]

Endi 2-jadvaldagi ma'lumotlarning tahliliga qaytadigan bo'lsak, 2023 yilda kichik va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan joriy etilgan innovatsiyalar, ayniqsa texnologik innovatsiyalar va marketing innovatsiyalarining miqdori 2022 yilga nisbatan keskin pasaygan bo'lib, 2024 yilda yana o'sishda davom etgan. Biroq, tashkiliy innovatsiyalarning miqdori muntazam ravishda o'sishda davom etayotgan bo'lib, hatto 2024 yilga kelib nihoyat darajada yuqori natijani namoyon etgan. Agar 1-rasmdagi tashkiliy innovatsiyalarning tavsifiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bunday o'sishning quyidagi ikkita asosiy sababi to'g'risida tasavvurga ega bo'lamiz:

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyun PF-93-son "Kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlik subyektlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik o'rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida" gi Farmoni¹ bilan 51 tadan 200 tagacha va undan ham ortiq yangi ish o'ri yaratadigan tadbirkorlik subyektlari uchun "moliyalashtirish", "soliqqa tortish", "tadbirkorlik subyektlari faoliyati uchun zarur mablag'lar va infratuzilma bilan ta'minlash", "soliq va bojxona ma'muriyatchiligini soddalashtirish" hamda "tadbirkorlik subyektlarining huquqiy himoyasini kuchaytirish" kabi yo'nalishlar bo'yicha imtiyoz va preferensiyalarning taqdim etilishi [7] tashkiliy innovatsiyalarni joriy etish sur'atini yanada oshirdi. Darhaqiqat, 1-rasmdagi tashkiliy innovatsiyalarning tavsifida "ish o'rinlarini tashkil etishning yangi yoki takomillashtirilgan usullarini joriy etishga qaratilgan innovatsiyalar" mazmunidagi jumla mavjud bo'lib, Prezidentimizning ushbu Farmonida belgilangan vazifalar tashkiliy innovatsiyaning tavsifiga muvofiq keladi.


Mazkur Farmonga ko'ra, bunday tadbirkorlik subyektlari "20 ming tadbirkor – 500 ming malakali mutaxassis" dasturiga kiritilib, ularga yuqorida ta'kidlab o'tilgan yo'nalishlar bo'yicha tabaqalashtirilgan imtiyoz va preferensiyalar beriladi. Biz ko'rib chiqilayotgan muammo moliyalashtirish bilan bog'liq bo'lganligi uchun 2-rasmda

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyun PF-93-son "Kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlik subyektlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik o'rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida" gi Farmoni.. <https://lex.uz/ru/docs/-6493069>

faqat moliyalashtirish yoʻnalishi boʻyicha taqdim etilgan imtiyoz va preferensiyalar toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni keltiramiz.

2-rasmdan koʻrinib turganidek, Prezidentimizning 2023-yil 12-iyun PF-93-sonli Farmoni¹ bilan 51 tadan 100 tagacha yangi ish oʻrni yaratadigan tadbirkorlik subyektlari uchun – 5 milliard soʻm, 101 tadan 200 tagacha yangi ish oʻrni yaratadigan tadbirkorlik subyektlari uchun – 10 milliard soʻm va 200 tadan ortiq yangi ish oʻrni yaratadigan tadbirkorlik subyektlari uchun – 15 milliard soʻm miqdorida 7 yilgacha muddatga 14 foiz stavkada kredit ajratish yoʻlga qoʻyildi. Bu shubhasiz, 2023-yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan joriy qilingan tashkiliy innovatsiyalarning miqdorini keskin ravishda oshishiga imkon yaratdi.

Ikkinchidan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-sentyabr PF-228-son “Tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” gi Farmoni² bilan Eksporni qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmasi hisobidan eksportoldi va eksport bilan bogʻliq savdo operatsiyalarini moliyalashtirishi uchun oxirgi 12 oy mobaynida amalga oshirilgan eksport hajmidan kelib chiqqan holda tadbirkorlik subyektlari uchun moliyaviy resurslarning ajratila boshlanishi [8] ham tashkiliy innovatsiyalar miqdorining oshishiga muhim turtki boʻldi.



2-rasm. Tadbirkorlik subyektlarining loyihalarini amalga oshirish uchun 7 yilgacha muddatga 14 foiz stavkada ajratiladigan kreditlarning maksimal miqdorlari, mlrd soʻm [9]

Agar 1-rasmdagi tashkiliy innovatsiyalarga berilgan tavsifga eʼtiborni qaratadigan boʻlsak, unda “tashqi aloqalarni yoʻlga qoʻyishning yangi yoki takomillashtirilgan


¹Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyun PF-93-son “Kambagʻallikni qisqartirishda tadbirkorlik subyektlari bilan oʻzaro manfaatli hamkorlik oʻrnatishga qaratilgan chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi Farmoni.. <https://lex.uz/ru/docs/-6493069>

²Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-sentyabr PF-228-son “Tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-6217257>

usullarini joriy etishga qaratilgan innovatsiyalar” mazmunidagi jumla mavjud bo‘lib, bu tadbirkorlik subyektlari eksport faoliyatining moliyalashtirilishi, mohiyatan olib qaraganda, tashkiliy innovatsiyalarning moliyalashtirilishini o‘zida aks ettiradi.

3-rasmda Prezidentimizning 2022-yil 30-sentyabrdagi PF-228-sonli Farmoni¹ bilan belgilangan tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatini moliyalashtirish to‘g‘risidagi ma‘lumotlar keltirilgan.

3-rasmdan ko‘rinib turganidek, agar tadbirkorlik subyektlarining oxirgi 12 oydagi eksport hajmi 1 mln AQSH dollardan 5 mln AQSH dollargacha bo‘lsa – 1 mln AQSH dollargacha, 5 mln dollardan 10 mln AQSH dollargacha bo‘lsa – 2 mln AQSH dollargacha, 10 mln AQSH dollardan 15 mln dollargacha bo‘lsa – 3 mln dollargacha, 15 mln dollardan 20 mln AQSH dollargacha bo‘lsa – 4 mln AQSH dollargacha va 20 mln AQSH dollardan ortiq bo‘lsa – 5 mln AQSH dollargacha bo‘lgan moliyaviy resurslar Eksportni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi hisobidan ajratiladi. Bunga qo‘shimcha ravishda, agar ushbu talablarga javob beradigan tadbirkorlik subyektlari bitta xalqaro standartni joriy qilsalar va sertifikatni olsalar ularga 30 ming AQSH dollaridan ko‘p bo‘lmagan miqdorda moliyaviy yordam ham taqdim etiladi.



3-rasm. Eksportni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi hisobidan tadbirkorlik subyektlarining eksport hajmidan kelib chiqqan holda ajratiladigan moliyaviy resurslar, mln. AQSH dollar [10]

Bulardan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, Prezidentimizning PF-228-sonli Farmoni² bilan tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatining qo‘llab-quvvatlanishi

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-sentyabr PF-228-son “Tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-6217257>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-sentyabr PF-228-son “Tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-6217257>

– ular tomonidan joriy etilgan tashkiliy innovatsiyalar miqdorining muntazam, hatto 2024 yilga kelib keskin o‘shish tendensiyasining kuzatilishiga imkon yaratdi.

Umuman olganda, yuqorida keltirib o‘tilganidek, kichik va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy innovatsiyalaridan tashqari texnologik va marketing innovatsiyalari ham mavjud bo‘lib, bular xususida keyingi tadqiqotlarimizda to‘xtalib o‘tishga harakat qilamiz. Biroq, shuni qat’iyat bilan ayta olamizki, 2024 yilda ushbu innovatsiya turlari bo‘yicha ham yana o‘shish tendensiyasining kuzatilganligiga asosiy sabab davlat tomonidan ularni moliyalashtirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarga (tashkiliy innovatsiyalar kabi) borib taqalishi mumkin. Chunki, mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlarining innovatsion faoliyatini moliyalashtirishda davlatning roli nihoyat darajada muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlarining innovatsion faoliyatini moliyalashtirishga muhim e‘tibor qaratilayotgan bo‘lib, buni yuqorida keltirilgan tahliliy ma‘lumotlar va ko‘rib chiqilgan me‘yoriy-huquqiy hujjatlardan ham bilsa bo‘ladi. Shu o‘rinda bir masalani yana qayta takrorlab aytmog‘chimizki, tadbirkorlik subyektlarining innovatsion faoliyatini moliyalashtirishda davlat eng asosiy kuch hisoblanadi. Shulardan kelib chiqqan holda, quyida ilmiy-amaliy tavsiyalarimizni keltirib o‘tmoqchimiz:

- Tadbirkorlik subyektlarining innovatsion faoliyatini moliyalashtirish manbalarini yanada ko‘paytirish kerak: yuqoridagi tahlillardan ham ko‘rinib turganidek, mamlakatimizda bunday moliyalashtirish manbalari asosan tijorat banklari (aksariyati davlat ulushi bor banklar) tomonidan ajratiladigan kreditlar va turli xil davlat jamg‘armalari tomonidan ajratiladigan subsidiyalardan iborat bo‘lib, bundan tashqari lizing, faktoring, kredit liniyalari, savdo krediti, xususiy kapital, ichki mablag‘lar, grantlar va boshqa shu kabi manbalardan ham to‘liq foydalanilsa maqsadga muvofiq bo‘lard. Moliyalashtirish manbalari qanchalik ko‘p qo‘llanilsa, shunchalik ko‘p tadbirkorlik subyektlari innovatsion faoliyatni joriy etish va rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lishadi;

- Tadbirkorlik subyektlari innovatsion faoliyatini moliyalashtirishda grantlar ajratishni nazarga tutuvchi ko‘rik-tanlovlarning o‘tkazilishini ko‘paytirish kerak: mamlakatimizda bunday tanlovlar yetarli darajada bo‘lmasdan, bu ham tadbirkorlarning innovatsiyalarni joriy etishga bo‘lgan qiziqishining sust bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Tadqiqot davomida, faqat O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi bilan Rossiya Federatsiyasi hamkorligida amalga oshirib kelinayotgan startup-loyihalar bo‘yicha ko‘rik-tanlov haqida ma‘lumotga ega bo‘ldik. Biz uylaymizki, bunday ko‘rik-tanlovlarning yana ko‘plab va cheksiz o‘tkazilishi tadbirkorlik subyektlari innovatsion faoliyatining yanada rivojlanishiga olib keladi;

- “Tadbirkorlik subyektlarining innovatsion faoliyati” mavzusida muhim o‘rin egallaydigan startaplar to‘g‘risidagi statistikasi takomillashtirish kerak: tadqiqot davomida bunday statistikaning aniq emasligi natijasida, u to‘g‘risidagi

izlanishlarimizni keyingi tadqiqotlarimizga qoldirishga qaror qildik. Aynan statistikaning yaxshi emasligi, startaplarga investitsiya qilmoqchi bo'lgan xalqaro venchur investorlarining jalb qilinishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Mamlakatimizda, startaplar to'g'risida barcha mukammal statistik ma'lumotlarni o'zida qamrab olgan veb saytini yaratish vaqti keldi deb uylaymiz.

Umuman olganda, mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlarining innovatsion faoliyatini moliyalashtirish bo'yicha ko'plab ijobiy ahamiyatga molik ishlar amalga oshirilayotgan bo'lib, kelgusida ular nafaqat mamlakat darajasida, balki xalqaro darajada muvaffaqiyatli tadbirkorlar sinfining shakllanishiga olib keladi. Umid qilamizki, tadqiqotimiz natijasida ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar bunga o'zining munosib hissasini qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati: kichik tadbirkorlik subyektlari. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining axborotnomasi (2024-yil yanvar-dekabr oylari). T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, 2024. 227-252 betlar.

2. Anabela M. Santos, Michele Cincera and Giovanni Cerulli. Sources of financing: Which ones are more effective in innovation-growth linkage? // Economic Systems. Volume 48, Issue 2, June 2024. 15 pages.

3. Малые технологические компании из 20 регионов получили гранты на инновационные проекты. 08.08.2024. Официальный вебсайт Фонда содействия инновациям

4. . www.fasie.ru

5. Atamuradov Sh. A. Innovatsion faoliyatni venchurli moliyalashtirishning xalqaro modellarini joriy etish samaradorligi // Iqtisod va moliya / Экономика и финансы 2019, 1(121). 47-55-betlar.

6. O'zbekiston Respublikasida kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil uchun). O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Toshkent-2024, 31 bet.

7. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 24-iyul, O'RQ-630-son "Innovatsion faoliyat to'g'risida" gi Qonuni.. <https://lex.uz/docs/-4910391>

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyun PF-93-son "Kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlik subyektlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik o'rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.. <https://lex.uz/ru/docs/-6493069>

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-sentyabr PF-228-son "Tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-6217257>

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyun, PF-93-son "Kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlik subyektlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik o'rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-6493069>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhah:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, oktabr, 10-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**